



Pedagogik dizayn vositasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirish

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna –

Farg'ona davlat universiteti

“Maktabgacha” ta'lim kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

E-mail: dilafruzyuldasheva12@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-7187-2330>

Matkarimova Shaxnoza Maxamadjanovna –

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail: sahnozamatkarimova647@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5094-9399>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik dizayn vositalarining o'рни va samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida ADDIE modeli asosida mashg'ulotlar loyihalashtirildi va interaktiv vositalar yordamida amalga oshirildi. Natijalarga ko'ra, bolalarning so'z boyligi, gap tuzish, talaffuz va muloqot faolligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Maqolada pedagogik dizaynning ta'lim sifatini oshirishdagi afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik dizayn, maktabgacha ta'lim, nutqni rivojlantirish, interaktiv vositalar, bolalar nutqi, ADDIE modeli

Развитие речи детей дошкольного возраста средствами педагогического дизайна

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и эффективность педагогического дизайна в развитии речи детей дошкольного возраста. В ходе исследования занятия были спроектированы по модели ADDIE и реализованы с

использованием интерактивных средств. Результаты показали значительное улучшение словарного запаса, построения предложений, произношения и речевой активности детей. В статье анализируются преимущества педагогического дизайна в повышении качества дошкольного образования.

Ключевые слова: педагогический дизайн, дошкольное образование, развитие речи, интерактивные средства, речь детей, модель ADDIE.

Enhancing the speech of preschool children through pedagogical design

Annotation. *This article explores the role and effectiveness of instructional design tools in developing speech among preschool children. During the study, sessions were designed based on the ADDIE model and implemented using interactive tools. The results revealed significant improvement in children's vocabulary, sentence formation, pronunciation, and speech activity. The article analyzes the advantages of pedagogical design in enhancing the quality of preschool education.*

Keywords: *instructional design, preschool education, speech development, interactive tools, children's speech, ADDIE model*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutqning rivojlanishi ularning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Og'zaki nutq orqali bola atrof-muhitni anglaydi, fikrini ifodalaydi, savollarga javob beradi va muloqotga kirishadi. Ayni bosqichda nutqning boyligi va aniqligi kelgusidagi ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, pedagogik dizayn konsepsiyasi bolalar ta'limi va tarbiyasida yangi yondashuvlar yaratdi. Pedagogik dizayn – bu o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va samarali tarzda loyihalash, tashkil etish va baholashni o'z ichiga oluvchi jarayondir. U vizual, audio, interaktiv vositalardan foydalanib, bola ehtiyojiga mos ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada pedagogik dizayn asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda qo'llanilgan yondashuvlar va natijalari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim mazmuni, shakl va metodlarining yangilanishiga sabab bo'ldi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalash, tashkillashtirish va baholash zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik dizayn konsepsiyasi ta'limda innovatsion yondashuv sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Pedagogik dizayn – bu ta'lim jarayonini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va samarali shaklda rejalashtirish, o'quvchi ehtiyojlariga moslashtirish va unga oid faoliyatlarni baholashga asoslangan jarayondir. Bu yondashuv o'quvchi markazli ta'lim prinsiplariga tayangan holda, didaktik vositalar (vizual, audio, kinestetik va interaktiv) orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik dizayn ko'rgazmalilik, sensor rivojlanish, nutqiy muloqot va ijodiy fikrlash kabi muhim jihatlarni birlashtirgan holda kompleks yondashuvni taklif etadi. Bolaning tabiiy nutq rivoji uchun zarur bo'lgan muloqot muhiti aynan shu dizayn asosida shakllantirilgan faoliyatlar orqali yaratiladi. Bu esa Vygotskiy, Piaget, Bruner kabi yetakchi psixologlarning ijtimoiy-rivojlanish nazariyalariga asoslangan yondashuvlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Ushbu maqolada pedagogik dizayn asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, ulardan foydalanish bosqichlari hamda ularning amaliy natijalari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida dizayn asosida tuzilgan mashg'ulotlarning nutqiy rivojlanishga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik dizaynning nafaqat ta'lim samaradorligini, balki bolalarning kommunikativ, ijtimoiy-emosional va kognitiv rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida nutqiy rivojlanishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Xususan, pedagogik dizayn vositalarini qo'llash orqali bolalar nutqini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va samarali shaklda rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Mazkur yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik, lingvistik va texnologik yondashuvlar bilan ham chambarchas bog'langan. Tahlil etilgan adabiyotlarda nutqni rivojlantirish usullari turlicha ko'rinishda yoritilgan.

Masalan, M.Matmusayeva [1.89] nutqiy o'yinlar orqali og'zaki nutq va so'z boyligini oshirishni asoslagan bo'lsa, M.Mamurova va Z.Sherbotayeva [2.33] bolalarda nutqiy rivojlanishning psixologik muammolari, muloqot muhiti va pedagogik sharoitlar bilan aloqadorligini tahlil qiladi. M.Gulmuratova [2.33] esa maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganib, interaktiv metodlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar pedagogik dizayn vositalari bilan bog'liq bo'lib, bolaga moslashtirilgan, multimodal va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Alohida e'tiborga molik jihatlardan biri – logoritmik mashg'ulotlar va dialogik nutqni rivojlantirish usullarining faol qo'llanilishidir. M.Takhirova [3.57] logoritmika orqali nutq va ritm uyg'unligini ta'minlashga urg'u bergan bo'lsa, Sakulova [4.114] dialogik nutqni rivojlantirishda logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar pedagogik dizayn konsepsiyasining amaliy ko'rinishlarini namoyon etadi – ya'ni ta'lim jarayonini rejalashtirishda bolalarning individual ehtiyojlari va nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodik materiallar va faoliyatlar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, Najmiddinova (2024) tomonidan bilingval (ikki tili) muhitda bolalar nutqini shakllantirish masalalari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda hikoya tuzish, savol-javob usullari va og'zaki muloqot bo'yicha mashg'ulotlarning ikki tili muhitdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Kamolova [5.74] esa nutq va tafakkur rivojlanishining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilib, xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat qilgan. Bu esa pedagogik dizaynning xalqaro ta'lim standartlariga moslashish imkoniyatlarini ochib beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiyotlarda ko'rsatilgan yondashuvlarning kuchli jihatlari – ularning bolaga yo'naltirilganligi, faol metodlardan foydalangan holda ta'lim muhiti yaratishga qaratilganligi va empirik asosga ega bo'lishidir. Ayniqsa, metodlar xilma-xilligi (nutqiy o'yinlar, hikoya tuzish, interaktiv mashg'ulotlar, logoritmika, dialogik nutq, didaktik o'yinlar va h.k.) pedagogik dizaynning ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ko'plab tadqiqotlarda Vygotskiy, Piaget, Bruner kabi mashhur psixologlarning nazariyalariga asoslanilganligi ularning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Shunga qaramay, adabiyotlar tahlili ayrim kamchiliklarni ham ko'rsatdi. Jumladan, ko'pgina tadqiqotlar kichik hajmli guruhlar bilan cheklanib qolgan, uzoq muddatli kuzatuvlar va taqqoslovchi eksperimentlar yetarli darajada olib borilmagan. Pedagogik dizayn tushunchasi ayrim maqolalarda aniq belgilab berilmagan yoki uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, ba'zi maqolalarda fonetik, grammatik va morfologik jihatlar yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ta'kidlash joizki, mavjud adabiyotlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda pedagogik dizayn vositalarining katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalishda chuqur empirik

tadqiqotlar, tizimli metodologiyalar va dizayn asosidagi o'quv rejalarini ishlab chiqish zarur. Pedagogik dizayn yordamida yaratilgan zamonaviy, bolaga mos ta'lim muhiti nafaqat nutqiy rivojlanishni, balki bolaning ijodiy, kommunikativ va kognitiv salohiyatini ham kuchaytirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda pedagogik dizayn asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqildi va ularning samaradorligi tajriba-sinov asosida baholandi. Tadqiqotning metodologiyasi aralash yondashuv (mixed-methods) tamoyiliga asoslangan bo'lib, bunda miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Tadqiqot eksperimental xarakterga ega bo'lib, asosiy maqsad pedagogik dizayn elementlari orqali ta'lim mazmunini tizimli, maqsadli va bola ehtiyojlariga mos shakllantirish hamda bu jarayonning bolalar nutqining rivojiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqotda 5-6 yoshdagi jami 40 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash asosida ikkita guruhga ajratildi: eksperimental guruh (20 nafar) va nazorat guruhi (20 nafar). Eksperimental guruh bilan pedagogik dizayn asosida ishlab chiqilgan interaktiv, multimodal ta'lim mashg'ulotlari olib borildi. Nazorat guruhi esa an'anaviy metodikalar asosida dars olib bordi. Har ikki guruhdagi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi mashg'ulotlar oldidan (pre-test) va mashg'ulotlar tugagandan so'ng (post-test) baholandi.

Pedagogik dizayn asosida tuzilgan ta'lim ssenariysi ADDIE modeli (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation) asosida ishlab chiqildi. Dastlabki bosqichda bolalarning nutqiy holati, ehtiyojlari va rivojlanish darajasi aniqlanib, shu asosda mashg'ulotlar loyihalashtirildi. Mashg'ulotlar davomida bolalar bilan og'zaki muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan hikoya tuzish, so'z boyligini oshirish, savol-javoblar, dramatisatsiya va rolli o'yinlar kabi interaktiv faoliyatlar tashkil etildi. Bundan tashqari, multimediyaviy vositalari (audiovizual materiallar, interaktiv slaydlar, rasmlar) va logoritmik mashqlar orqali nutq rivojiga yordam berildi.

Tadqiqotda bolalarning nutqiy rivojlanishi quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha baholandi: so'z boyligi (aktiv va passiv lug'at), gap tuzish ko'nikmalari, fonetik va fonematik aniqlik, talaffuz ravonligi, muloqotga kirishish va javob berish tezligi. Bu indikatorlar asosida dastlabki va yakuniy holat orasidagi farq tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil uchun statistik usullar, xususan, t-test yordamida eksperimental va nazorat guruhlarida o'rtasidagi farqlar hisoblandi. Sifatli tahlil esa bolalarning mashg'ulotlardagi ishtiroki, emotsional javoblari, muloqotdagi faolligi, ota-onalar va pedagoglarning kuzatuv natijalari asosida olib borildi.

Tadqiqot davomida pedagogik dizayn vositasida tashkil etilgan ta'lim mashg'ulotlarining bolalar nutqining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'siri aniqlandi. Eksperimental guruhda ishtirok etgan bolalarning so'z boyligi, gap qurish, savollarga aniq va izchil javob berish darajasi, nutqining ravonligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Sifatli tahlillar esa bolalarning o'z fikrini ifodalashdagi ishonchi, muloqotga kirishishdagi faolligi hamda ta'limga bo'lgan qiziqishi oshganini ko'rsatdi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi pedagogik dizaynning maktabgacha ta'limdagi nutqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi qudratli vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ushbu metodologik yondashuv, kelgusida maktabgacha ta'lim dasturlarini loyihalash, pedagoglar malakasini oshirish va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida pedagogik dizayn asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi empirik

jihtadan o'rganildi. Eksperiment 8 hafta davomida olib borilib, unda 5–6 yoshdagi 40 nafar bola ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlov asosida ikkita guruhga bo'lindi: eksperimental guruh (pedagogik dizayn asosida o'qitilgan) va nazorat guruhi (an'anaviy metodlar asosida o'qitilgan).

Tadqiqot boshlanishidan oldin har ikki guruh bolalarining nutqiy rivojlanish darajasi quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:

- so'z boyligi (faol va passiv lug'at hajmi),
- gap tuzish qobiliyati,
- talaffuz aniqligi,
- og'zaki ifoda erkinligi,
- muloqotga kirishish tezligi.

Eksperiment yakunlangach, har ikki guruhdagi bolalarning natijalari yana qayta o'Ichandi va quyidagi asosiy farqlar aniqlandi:

1. So'z boyligi bo'yicha eksperimental guruhdagi bolalarning faol lug'ati o'rtacha 28% ga oshgani kuzatildi. Ular yangi so'zlarni kontekstda qo'llash, sinonim-antonymlar bilan ishlash, rasm asosida hikoya tuzish kabi topshiriqlarda faol ishtirok etdilar. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 11% ni tashkil etdi.

2. Gap tuzish va ifoda aniqligi jihatidan eksperimental guruhdagi bolalar murakkab gaplar tuzish, sodda voqealarni izchil bayon qilishda sezilarli o'sishni namoyon etdi. Masalan, mashg'ulotlardan oldin oddiy gaplardan foydalangan bo'lsa, yakunda "kim?", "qaerda?", "nima qildi?" kabi savollarga to'liq jumlar bilan javob bera olish qobiliyati ancha oshdi.

3. Talaffuz va fonetik aniqlik bo'yicha logoritmik mashqlar va fonematik o'yinlar orqali eksperimental guruhdagi bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasi yaxshilandi. Aksincha, nazorat guruhida talaffuzdagi xatoliklar sezilarli darajada saqlanib qoldi.

4. Muloqotga kirishish va erkin fikr bildirish darajasida ham eksperimental guruh yuqori natijalarni ko'rsatdi. Ular o'z fikrini erkin ifodalashga intildi, savollarga aniq va izchil javob berdi, suhbat jarayonida faol ishtirok etdi. Ota-onalar va tarbiyachilarning fikriga ko'ra, bolalarning o'zaro muloqot madaniyati, tinglash va javob berish odoblari ham ancha ijobiy tomonga o'zgargan.

Statistik tahlillar (t-test) orqali aniqlanishicha, eksperimental guruhdagi o'zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli bo'lib, $p < 0.05$ darajasida sezilarli farq borligi qayd etildi. Bu esa pedagogik dizayn asosida tashkil etilgan ta'lim mashg'ulotlari bolalar nutqining rivojlanishida samarali ekani ilmiy asosda isbotlandi. Sifatli tahlil natijalari ham eksperimental guruh foydasiga ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Bolalar faoliyatiga oid kuzatuv jadvallari, mashg'ulot davomida yozib olingan video va audio yozuvlar, shuningdek, ota-onalar bilan o'tkazilgan intervyular asosida shuni aytish mumkinki, pedagogik dizayn modeli orqali yaratilgan o'quv muhiti nafaqat nutqiy rivojlanishga, balki bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi, emotsional faolligi va muloqotga bo'lgan qiziqishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ko'rinadiki, pedagogik dizayn vositasida tuzilgan, interaktiv, multimodal va bola markaziga yo'naltirilgan mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali metodika sifatida o'zini oqladi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki bolada kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish va o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi.

XULOSA

Pedagogik dizayn vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda samarali va zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning yoshiga mos, qiziqarli va interaktiv

uslublarda tashkil etilgan ta'limiy jarayon nafaqat ularning so'z boyligini oshirish, to'g'ri talaffuz qilish, muloqotga kirishish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik dizayn bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish, o'zini ifoda etish imkoniyatini yaratish, rag'batlantirish va motivatsiyasini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, pedagogik dizayn asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy, intellektual va emosional rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Matmusayeva Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining o'rni // American Journal of Pedagogical and Educational Research, 2023. – №11. – B. 89-93.
2. M.M.Mamurova Z.X.Sherbotayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik muammolari; International Journal of Culture and Modernity. –2021, №11. – B. 33-37.
3. M.Gulmuratova Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar tasnifi // Journal of Science and Research in Technology. –2024. №3. – B. 57-61.
4. Z.K.Sakulova A.Satova, va D.Kalykbaeva Dialogik nutq ko'nikmalarini shakllantirishda nutq terapiyasi mashg'ulotlarining o'ziga xosligi Russian Review of Applied Linguistics. – 2025. №5(1). – B. 114-121.
5. M.Takhirova Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali usullari: logoritmika amaliyoti asosida The American Journal of Social Science and Education Innovations. –2022. №4. –B. 88-92.
6. M.N.Najmiddinova Ikki tilli (bilingval) muhitda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish usullari, Modern Science Online Journal. –2024. №6. –B. 62-66.
7. Kamolova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari va xorijiy tajriba Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. №4(2). –B. 74-79.
8. B.Xudayberdiyeva, B.Umaraliyevna Bolalar nutqini rivojlantirish va uni o'qitish metodikasi // Science Journal. – 2023. №7(3). –B. 44-49.